

**Haydarova Fotima Abdishukurovna**

**G'uzor tumani 71-maktab**

**Geografiya fani o'qituvchisi.**

## **QISHLOQ XO'JALIGIDA AGRAR-INDUSTRIAL SIKLNING**

### **RIVOJLANISHI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida tarmoqlararo majmualar, agrar-industrial siklning shakllanishi va rivojlanishi haqida statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligida agrar-industrial siklning rivojlanishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qishloq xo'jalik, agrar-industrial, sikl, tuproq hosildorlik, yer.*

**Хайдарова Фатима Абдишукуровна**

**Школа № 71 Гузарского района Учитель географии.**

### **РАЗВИТИЕ АГРАРНО-ПРОМЫШЛЕННОГО ЦИКЛА В СЕЛЬСКОМ**

#### **ХОЗЯЙСТВЕ**

**Аннотация:** В данной статье анализируются статистические данные о межотраслевых комплексах в сельском хозяйстве, становлении и развитии аграрно-промышленного цикла. Даны предложения и рекомендации по развитию аграрно-промышленного цикла в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, аграрно-промышленный, цикл, почва урожайность, земля.

**Haydarova Fatima Abdishukurovna**

**Ghuzar District School No. 71 Teacher of geography.**

### **DEVELOPMENT OF THE AGRARIAN-INDUSTRIAL CYCLE IN AGRICULTURE**

**Annotation:** this article analyzes statistics on inter-sectoral complexes in agriculture, the formation and development of the agrarian-industrial cycle. Proposals and recommendations have been made on the development of the agrarian-industrial cycle in agriculture.

**Keywords:** Agriculture, Agrarian-industrial, cycle, soil productivity, land.

Yangi o'zlashtirilgan qishloq xo'jaligi rayonlarida tarmoqlararo va hududiy ishlab chiqarish majmualarning shakllanish imkoniyatlari yaxshiroq. Sababi, bu joylarda ishlab chiqarishni tashkil etish avvaldanoq tizimli va majmuali tarzda amalga oshirilgan. Shu nuqtai nazardan, Surxon-Sherobod va Qarshi cho'llarini o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos majmualar shakllanib kelgan. Ularning biri

agrар-industrial majmua bo‘lib, bu majmuaning ham ikki tomoni, ya’ni tarmoqlararo va hududiy jihatlari bor. Avvalo ta’kidlash joizki, agrар-industrial majmular iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, ya’ni qishloq xo‘jaligi va qayta ishslash sanoati kooperatsiyasi va integratsiyasi natijasida ham va, shu bilan birga, bu tarmoqlarning ichida ham shakllanishi mumkin. Chunonchi, chorvachilik bilan dehqonchilik yoki g‘allachilik bilan parrandachilik, kartoshka va sabzavot yetishtirish bilan sut-go‘sht chorvachiligi, paxtachilik bilan pillachilik, bog‘dorchilik bilan uzumchilik kabilar tarmoq tarkibidagi ishlab chiqarish majmulari hisoblanadi.

Biroq, tarmoqlararo yoki tarmoqlar ichidagi majmular hammavaqt ham hududiy umumiylikka ega bo‘lavermaydi, ularning asosini yoki majmua hosil qiluvchi omilini texnologik jarayonlarning uyg‘unlashuvi tashkil qiladi. Bu jarayonlar ayni vaqtda energiya ishlab chiqarish sikllari uchun eng muhim hisoblanadi.

N.N.Kolosovskiyning energiya ishlab chiqarish sikllari ta’limoti mohiyatidan kelib chiqqan holda Janubiy O‘zbekiston mintaqasida asosan 2 ta energiya ishlab chiqarish sikllarini ajratish mumkin. Ularning birinchisi neft-gaz-kimyo, ikkinchisi agrар-industrial sikl hisoblanadi. Mintqa agrар-industrial siklning tarkibiy tuzilishi (modeli), Y.G.Saushkin tavsifi bo‘yicha, daraxt shaklida aks ettirish mumkin. Uning asosini yangi o‘zlashtirilgan hududlarning yer-suv resurslari tashkil qiladi. Ma’lumki, avval ta’kidlanganidek, XX asrning 70-yillarda Qarshi cho‘li keng miqyosda o‘zlashtirildi. Qashqadaryo viloyati esa qo‘sni Turkmaniston davlati hududidan oqib o‘tadigan Amudaryo suvini nasoslar yordamida yuqoriga ko‘tarish asosida suv bilan ta’minlandi. Suv olishning doimiyligini saqlash uchun Tallimardon issiqlik elektr stansiyasi qurildi. Qashqadaryo viloyati yangi o‘zlashtirilgan hududlarining mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoji esa mahalliy va viloyatning boshqa tumanlaridan ko‘chirib keltirilgan aholi hisobidan qondirildi. Demak, mintaqada gidromeliorativ agrar-

industrial siklning shakllanishi uchun to‘rtta asos mavjud, bular: yer resurslari, suv resurslari, mehnat resurslari va elektr energiya.

Ushbu siklning shakllanishida yer resurslari sikl hosil qilish ahamiyatiga ega. O‘zbekiston umumiy maydonining 56,9 foizi qishloq xo‘jaligi yerlari hisoblansa, Qashqadaryo viloyatida bu ko‘rsatkich yuqorida ta’kidlanganidek 75,0 foizga teng yoki respublika jami qishloq xo‘jaligi yerlarining 13,5 foizi bu hududga to‘g‘ri keladi. Agrar-industrial energiya ishlab chiqarish siklining ikkinchi bazaviy asosi sifatida suv resurslari xizmat qiladi. Ular mintaqada intensiv sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. Biroq, Janubiy O‘zbekistonda shakllangan suv resurslari mintaqqa qishloq xo‘jaligini ta’minalashga yetmaydi. Shuning uchun o‘zlashtirishning dastlabki davridayoq bu masalaga jiddiy qaraldi va Qashqadaryoning cho‘l hududida to‘liq transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgan Amudaryo suvlaridan foydalanildi.

Amudaryodan sun‘iy yo‘l bilan (nasoslar yordamida) suv chiqarilishi natijasida Qarshi cho‘lida keng ko‘lamli o‘zlashtirilish ishlari olib borildi. Mintaqaning asosiy suv manbai Qarshi magistral kanali (QMK) Amudaryodan olinayotgan suvni dastlab Tallimaron suv omboriga va so‘ngra iste’molchilarga yetkazish uchun xizmat qiladi. Qashqadaryo viloyatining yangi o‘zlashtirilgan yerlarining suv manbalaridan foydalanishi to‘liq Amudaryoga bog‘liq. Viloyat quyi rayonlari sug‘oriladigan yerlarining 2/3 qismiga yaqini, ya’ni 216,1 ming getktari Qarshi magistral kanali, 33,1 foizi yoki 109,6 ming getktari Mirishkor kanali va atigi 1,7 foizi yoki 5,5 ming getktari Qashqadaryoda suvlari bilan sug‘oriladi. Ushbu hudud qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlarining 98,3 foizi sun‘iy sug‘orish tizimi nasoslar yordamida hosil qilinadigan suv bilan ta’milanadi.

Mintaqada gidromeliorativ agrar-industrial siklning shakllanishida aholi va mehnat resurslarining o‘rni ham katta. Shu o‘rinda demografik omilning yer va suv resurlari bilan birga o‘zaro bog‘liqligi va ularning ko‘p mehnat talab qiladigan gidromeliorativ energiya ishlab chiqarish siklining shakllanishida asosiy bazaviy

vazifani bajarishini ta'kidlash joiz. 2020 yilning dastlabki ma'lumotiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida respublika aholisining 9,8 foizi istiqomat qiladi, shundan 34,6 foizi yangi o'zlashtirilgan hududlarga to'g'ri keladi. Qishloq tumanlariga o'rtacha 152,5 ming kishidan to'g'ri kelib, demografik salohiyati bo'yicha tumanlar bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, Koson (228,1 ming kishi), Qarshi (195,8 ming kishi), Kasbi (175,5 ming kishi) tumanlari aholi sonining ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Tabiiy sharoitining noqulay bo'lgan qismida joylashgan Mirishkor va Muborak qishloq tumanlarida esa aholi juda kam. Ushbu mintaqa aholisining yana bir o'ziga xos xususiyati (Qarshi cho'lining o'zlashtirilgan davrida) boshqa tuman yoki viloyatlardan ichki migratsiya orqali shakllanganligidir.

Gidromeliorativ agrar-industrial siklning vujudga kelishida elektr energiyaning roli juda katta. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligining ko'p elektr energiya iste'mol qilishi ham uning muhim geografik xususiyatlarini belgilab beradi. Bugungi kunda mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun ishonchli energetika bazasi yaratilgan. Tallimaron IES – O'zbekistonda qurilayotgan yirik issiqlik elektr stansiyalaridan biri bo'lib, u Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanidagi Nuriston shaharchasida, Tallimaron suv omboridan 7 km uzoqlikda joylashgan. 1988 yil yanvarida boshlangan loyiha quvvati 3200 mvt (800 mvt li 4-energiya blokda) bo'lgan stansiyaning birinchi energiya bloki 2004 yil oxirida ishga tushirildi\_. IES uchun yoqilg'i sifatida SHO'rtan gaz konlaridan foydalilanadi. Tallimaron IES mintaqa qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalari, aholi manzilgohlari va boshqa istemolchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Bu yerda 2020 yilda 5848,0 mln.kVt/s. elektr energiya yoki respublikada ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 10 foizidan ko'prog'i yaratilgan.

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarining majmuali shakllanishi va rivojlanishiga cho'l o'zlashtirilishi bilan tarkib topgan irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasining ahamiyati juda katta. Qashqadaryo viloyatining quyi qismi qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda Amudaryodan Qarshi

magistral kanali, Mirishkor kanali va Tallimaronjon suv omboriga suv yetkazib berishda Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari kaskadi va 9,8 ming kilometrdagi sug‘orish tarmoqlaridan foydalaniladi. Ularning 14,4 foizi beton kanal, 48,8 foizi yer ariq, 36,8 foizi latoklardan iborat.

Yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonida sug‘oriladigan yerlarda meliorativ obyektlar infratuzilmasi shakllantirildi; umumiy uzunligi 20,6 ming km kollektor-drenaj tarmoqlari barpo etilgan bo‘lib, bu mintaqa jami kollektor-drenaj tarmoqlarining 84,0 foizga barobar. Qashqadaryo viloyatida mazkur ko‘rsatkich 11,9 ming km. Demak, bu yerda agrar-industrial siklning muhim dastlabki bo‘g‘ini sifatida murakkab meliorativ infratuzilma shakllangan.

Qashqadaryo viloyatida kollektor-drenaj tarmoqlari uch, ya’ni xo‘jaliklararo (6,2 ming km), ichki xo‘jalik (3,9 ming km) va yopiq-yotiq drenaj (10,5 ming km) tizimda barpo etilgan, bunda yopiq-yotiq drenajning hissasi kattaroq, u jami mintaqa kollektor-drenaj tarmoqlarining 51,0 foizini tashkil qiladi. Mintaqada shakllangan irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi uchun asosiy o‘zak vazifasini bajardi. Natijada, hududda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikni intensiv rivojlantirish shart-sharoitlari yaratildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Файзуллаев М. А. Жанубий Узбекистон чул худудларида кишлок хужалиги ривожланишининг иктисадий географик омиллари //Геог. фан. фалс. докт.... дис. автореф. – 2017. – Т. 47.
2. Навотова Д. И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталаштиришнинг баъзи масалалари //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 721-725.
3. Навотова Д. И., Хайдарова Ф. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-3 (95). – С. 198-202.
4. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. Экономико-географические проблемы градостроительства верхне-Кашкадарьинской области //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2 SPECIAL. – С. 707-713.
5. Safarov I. B., Rasulov F. I. Development of social spheres in the cities of Kashkadarya region //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 85-90.

6. Murodova D. S. Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2023. – T. 16. – C. 32-35.
7. Safarov I. B., Loqayeva Z. P. Unique features and potential of pilgrimage tourism //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – C. 453-458.